


SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.


Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


3



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oyida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-sentabr oyida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **6,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,3 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



102

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

2 148

Ishlab chiqarish sanoati

22

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

39


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 2 311 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 115,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 93,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 103,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 129,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 2,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) ko'payishiga sabab bo'ldi.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,9** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




10,8 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



15,5 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



20,0 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




4,1 foizga kamaygan




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni





Xususiy korxonalar





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 391 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33 taga yoki 9,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 372 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68 taga yoki 22,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 47 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108 taga yoki 69,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 11 459 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 537 taga yoki 15,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 897 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 531 taga yoki 16,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 633 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 422 taga yoki 20,5 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 197 tani tashkil etib, ulardan 187 tasi yoki 94,9 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 11 taga yoki 5,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021-yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida 16 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirkmalar




Kichik korxonalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	82	103	146	182	187
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	10	8	15	19
Sanoat	60	68	101	114	119
Qurilish	3	5	7	10	12
Savdo	9	11	20	26	23
Tashish va saqlash	3	4	5	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	1		2	1
Axborot va aloqa	-	-	1	2	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	3	4	4	9	8

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Sirdaryo viloyati	187	119	68
Guliston sh.	45	27	18
Yangiyer sh.	23	12	11
Shirin sh.	5	5	-
Oqoltin	4	1	3
Boyovut	8	3	5
Sayxunobod	10	6	4
Guliston	5	4	1
Sardoba	10	7	3
Mirzaobod	16	9	7
Sirdaryo	54	43	11
Xovos	7	2	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 54 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 28,8 %), Guliston shahrida 45 ta (24,1 %), Yangiyer shahrida 23 ta (12,3 %), Mirzaobod tumanida 16 ta (8,6 %) hamda Sayxunobod tumanida 10 tani (5,3 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021-yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,5 %), Yangiyer shahri (6,8 %), Shirin shahri (2,6 %), Sirdaryo (14,2 %), Sayxunobod (7,8 %), Boyovut (7,9 %), Guliston (7,5 %), Mirzaobod (8,4 %), Oqoltin (5,6 %), Xovos (5,5 %), Sardoba (5,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021-yil yanvar-sentabr oyida, birlikda)

2021-yil yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (25,8 %), Yangiyer shahri (6,4 %), Shirin shahri (3,2 %), Sirdaryo (14,5 %), Sayxunobod (6,5 %), Boyovut (8,3 %), Guliston (6,9 %), Mirzaobod (9,5 %), Oqoltin (6,7 %), Xovos (5,4 %), Sardoba (6,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,6 %), Yangiyer shahri (7,8 %), Shirin shahri (2,4 %), Sirdaryo (16,0 %), Sayxunobod (7,9 %), Boyovut (7,4 %), Guliston (6,8 %), Mirzaobod (9,1 %), Oqoltin (5,7 %), Xovos (5,8 %) va Sardoba (5,5 %) tumanlari hissalariga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


18



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar-sentabr oyida, birlikda)




2021- yilning yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (23,3 %), Yangiyer shahri (12,8 %), Shirin shahri (4,3 %), Sirdaryo (17,0 %), Sayxunobod (8,5 %), Boyovut (4,3 %), Guliston (17,0 %), Mirzaobod (8,5 %), Xovos (4,3 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-sentabr oyida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining www.sirstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni yuritish bo'limi
Tel.: (67) 236-86-37